

KOREYS TILIDAGI MUSTAQIL SO'ZLAR VA 보조사 (YORDAMCHI SO'ZLAR) TUSHUNCHASI, ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19216371>

Muxtorov Abdumalik Egamberdiyevich

SamDCHTI koreys filologiyasi doktoranti

Annatatsiya

Ushbu maqolada koreys tilidagi mustaqil soʻzlar va 보조사 (yordamchi soʻzlar) tushunchasi, ularning lingvistik xususiyatlari va boshqa qoʻshimcha turlaridan farqi tahlil qilinadi. Maqolada koreys tilidagi qoʻshimchalar kelishik qoʻshimchalari, bogʻlovchi qoʻshimchalar va koʻmakchi qoʻshimchalar kabi asosiy guruhlariga ajratilib, ularning grammatik hamda semantik vazifalari izohlanadi. Shuningdek, yordamchi qoʻshimchalarning gapdagi maʼno kuchaytirish funksiyasi hamda soʻz birikmalaridagi bogʻlanish tizimidagi oʻrni ilmiy jihatdan koʻrib chiqiladi.

Аннотация

В данной работе рассматривается понятие 보조사 (вспомогательные частицы) в корейском языке, а также анализируются их лингвистические особенности и отличия от других видов частиц. В исследовании корейские частицы классифицируются на падежные частицы, соединительные частицы и вспомогательные частицы, и объясняются их грамматические и семантические функции. Кроме того, с научной точки зрения рассматривается роль вспомогательных частиц в усилении значения в предложении и их место в системе синтаксических связей.

Abstract

This study examines the concept of 보조사 (auxiliary particles) in the Korean language and analyzes their linguistic characteristics as well as their differences from other types of particles. The research classifies Korean particles into case particles, conjunctive particles, and auxiliary particles, explaining their grammatical and semantic functions. In addition, the study discusses the role of auxiliary particles in strengthening meaning within sentences and their place in the system of syntactic relations.

Tayach soʻzlar

보조사, postpozitsiya, Chxoe Xyonbae fikri, 품사, kelishik qoʻshimchalar
tasnifi, bogʻlovchi qoʻshimchalar tasnifi, chastitsalar, koʻmakchi
qoʻshimchalar, zamonaviy nuqtai nazar.

"품사" (pumsa) atamasi koreys tilida "soʻzning turi" degan maʼnoni anglatadi. 품사 tilshunoslikda soʻzlarning grammatik roli boʻyicha tasniflanadigan tizim boʻlib, asosan nomlar, feʼllar, sifatlar, ravishlar, old qoʻshimchalar va boshqalar kabi toifalarga boʻlinadi. "품사" atamasi xitoycha "품 (pin)" va "사 (sa)" soʻzlaridan iborat. "품" 'turi' yoki 'shakl'ni anglatadi, "사" esa 'soʻz' degan maʼnoni bildiradi. Shunday qilib, pumsa 'soʻzning turi' degan maʼnoga ega. Zamonaviy tilshunoslikda soʻz turkumi deb qoʻllaniladi. 품사(Pumsa) tushunchasi qadimgi Hindiston va Gretsiyaning grammatik nazariyasidan kelib chiqqan. Hindistonda sanskrit tili grammatikasi rivojlanishi bilan soʻzlarning shakli va funktsiyasini tizimli ravishda tasniflash amalga oshirildi. Gretsiyada esa Aristotel kabi faylasuflar tilning tuzilishini tahlil qilish orqali "pumsa" tushunchasini rivojlantirdilar. Koreys tilida ham pumsa taqsimoti qadimdan mavjud boʻlib, Koryo davlati va Choson davrida grammatik kitoblar yozilishi bilan yanada tizimlashtirildi. Zamonaviy davrda esa tilshunoslikning rivojlanishi bilan pumsaning taʼrifi va tasnifi yanada aniqlashdi.

Zamonaviy tilshunoslikda pumsani faqatgina shakliy mezonlar asosida emas, balki maʼnoviy va sintaktik rolga qarab ham belgilashadi. Masalan, feʼllar harakat yoki holatni ifoda etadi, nomlar esa narsalar yoki tushunchalarni bildiradi. Bunday tasnif tilning tuzilishi va foydalanishini tushunishda muhim rol oʻynaydi.

Koreys va oʻzbek tillarida yordamchi soʻzlarni oʻrganish muommo qadimdan tilshunoslikning asosiy tadqiqot mavzusi boʻlib kelgan. Yordamchi soʻzlarni oʻrganishdan oldin, ularning tushunchasini aniqlab olish lozim. Yordamchi soʻzlar koʻpincha maxsus yordamchi soʻzlar, cheklovchi soʻzlar, postpozitsiyalar(koʻmakchilar) kabi nomlar bilan atalib kelingan. Ammo ushbu maqolada Chxoe Xyonbae (1937:636)ning quyidagi fikriga asoslanib, yordamchi soʻz nomi tanlandi.

Yordamchi(soʻz) qoʻshimchalar fikr soʻzlaridan keyin kelib, ularga jumlada qatʼiy oʻrin bermaydi, faqatgina bu soʻzlarning maʼnosini har xil yoʻllar bilan kuchaytiradi. Faqat maʼnoni kuchaytirgani uchun ular jumlaning egasiga ham, toʻldiruvchisiga ham, aniqllovchisiga ham, hatto feʼlga ham qoʻshilishi mumkin. Bu yordamchi soʻzlarning eng katta xususiyati, yaʼni kelishikni koʻrsatmasdan, gapda

maxsus ma'no beruvchi semantik funksiyasi va otlar bilan bir qatorda ravishlar, fe'llarga ham qo'shilish xususiyatini namoyon qiladi. Bundan tashqari, ular boshqa qo'shimchalar kabi qo'shimchaning vazifasini ham bajaradi, shuning uchun biz yordamchi so'z atamasini tanlaymiz va ishlatamiz.

Maxsus yordamchi so'z atamasi Chae Van (1977), Song Gvansu (1979), Xon Saman (1983, 2002) kabi olimlar tomonidan qo'llanilgan. Cheklovchi (cheklanuvchi so'z) atamasi esa Yang Insik (1973), Kim Yongxi (1974), So Chjongeu (1994) kabi tadqiqotchilarning ishlarida ishlatilgan. "Postpozitsiya (ko'makchi so'z)" atamasi bu so'zlarning ot yoki fe'l kabi asosiy so'zlardan kelib chiqqan etimologik xususiyatini muhim deb hisoblagan olimlar tomonidan qo'llanilgan. Li Namsun (1996) kelib chiqishini aniqlash qiyin bo'lgan '는, 도, 야' kabi yordamchi so'zlarni alohida qo'shimchalar (affikslar) sifatida ajratgan bo'lsa, Ryu Gusang (1983) postpozitsiyalarni belgilashdagi muammolarni ko'rib chiqib, yordamchi so'zlar va postpozitsiyalarni alohida belgilashga hojat yo'qligini ta'kidlagan "Yordamchi so'z (Pochosa) atamasi Chxoe Xyonbae (1961) tomonidan taklif qilingan "yordamchi" so'zi bilan mazmunan bir xil bo'lib, Shin Changsun (1975), Nam Gisim va Ko Yonggeun (1993), Xo Un (1995), Li Vonggeun (1996) kabi olimlar tomonidan qo'llanilgan." "Shuning uchun ham, ushbu maqolada boshqa ilmiy ishlardan iqtibos keltirilganda atamalardagi chalkashlikning oldini olish maqsadida maxsus yordamchi so'zlar, cheklovchi so'zlar va postpozitsiyalarning barchasi yordamchi so'zlar (Pochasalar) nomi ostida birlashtiriladi."Quyida koreys tilidagi qo'shimchalarni jadval asosida tartibga keltirib o'tilgan.

Koreys tilidagi qo'shimchalarni umumiy 3 ga bo'lishimiz mumkin. Kelishik qo'shimchalar, bog'lovchi qo'shimchalar va ko'makchi qo'shimchalar.

Kelishik qo'shimchalar tasnifi

Qo'shimchalarni sifatlarga bo'lishning klassifikatsiyasi (분류)		Shakl (형태)
Kelishik	Bosh kelishik (주격조사)	-이/가, 께서
	Tushum kelishik (목적격조사)	을/를
	Kesim kelishik qo'shimchalari (서술격조사)	이다
	Qaratqich kelishik (관형격조사)	의
	보어 yasovchi qo'shimchalar (보격조사)	이/가
	Chaquiruv kelishigi qo'shimchasi (호격조사)	아/야/여

qo'shimchalari (격조사)	Hol yasovchi qo'shimchalar (부사격조사)	Jo'nalish kelishigi (여격조사)	-에, -에게, -한테, -께
		O'rin payt kelishigi (처격조사)	-에서 -에게서 -한테서
		Vosita yoki o'rinni ifodalovchi qo'shimcha (조각조사)	-으로

Bog'lovchi qo'shimchalar tasnifi

Bog'lovchi (접속조사)	qo'shimchalar	-와/과, -하고, -(이)랑, -(이)며
----------------------	---------------	-------------------------

Ko'makchi qo'shimcha tasnifi

Ko'makchi (보조사)	qo'shimchalar	-은/는, -만, 도, 부터, -까지, - 부처...까지, -밖에, -든지, -조사, -마지, - 마다, -보다, -처럼
--------------------	---------------	---

Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi. So'z birikmasida doimo ikkita qism bo'ladi. Ularning bittasi tobe, ikkinchisi esa hokim bo'ladi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi. Demak, bog'lovchi vosita tobe bo'lak oxiriga qo'shiladi. Bundan faqat egalik qo'shimchasi yordamida bog'langani mustasno. Egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shiladi. Tobe bo'lak esa qaratqich kelishigida turadi. Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasligi ham mumkin.

Masalan, litseyning bog'i – litsey bog'i.

Bundan ko'rinadiki, so'z birikmasida tobe bo'lak bilan hokim bo'lakning joylashish o'rni ham aniq bo'ladi. Tobe bo'lak oldin, hokim bo'lak esa keyin keladi. Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositaning qo'shilish o'rni ikki xil bo'ladi: kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida ham bog'lanadi. Masalan: Istiqlol uchun kurashmoq. Toshkent tomon yo'nalmogda. Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'langanda, ko'p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo'llanilishi mumkin. Natijada kelishik

qo`shimchalari va ko`makchilar sinonimiyasi vujudga keladi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

Ot	-ga, tomon, tomonga, -ga tomon	Fe'l
----	--------------------------------	------

Kelishik qo`shimchalari bilan ko`makchilar o`zaro sinonimik munosabatda bo`lsa ham, ular o`rtasida ma`lum ma`no farqlanishi mavjud. Kelishik qo`shimchasi yordamida bog`langanda hokim bo`lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo`nalish nuqtasi aniq, ko`makchi yordamida bog`langanda esa noaniq bo`ladi.

- Solishtiring:
- Maktabga ketdi. Maktab tomon ketdi. Maktabga tomon ketdi.
- Maktabdan chiqdi . Maktab tomondan chiqdi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 외국인을 위한 한국어 문법 1, 한국, 서울, 317-페이지, 2005년
2. 중국인 학습자를 위한 한국어 보조사 교육 내용 연구, DING ZIXUAN, 1-3 페이지
3. 중국어 전치사와 한국어 후치사의 대응 관계 고찰 2020 6 월
4. 공공언어 바로 쓰기의 정석 홍성진 2022년9월 28일
5. 국어 후치사 비교구문 연구 오 경 속 2004년 6월 01일